

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QURBANOV MUXTARBAY DAULETBAEVICH

**QORAQALPOG‘ISTON OYKONIMLARINING
TARIXIY-LINGVISTIK TAHLILI**

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Qurbanov Muxtarbay Dauletbaevich Qoraqalpog‘iston oykonimlarining tarixiy-lingvistik tahlili.....	3
Курбанов Мухтарбай Даулетбаевич Историко-лингвистический анализ ойконимов Каракалпакстана.....	35
Kurbanov Mukhtarbay Dauletbaevich Historical-linguistic analysis of oikonyms of Karakalpakstan.....	67
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	72

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QURBANOV MUXTARBAY DAULETBAEVICH

**QORAQALPOG‘ISTON OYKONIMLARINING
TARIXIY-LINGVISTIK TAHLILI**

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fil208 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdinazimov Shamshetdin Najimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qudaybergenov Mambetkerim Sarsenbaevich
filologiya fanlari doktori, professor

Do'simov Zaribboy
filologiya fanlari doktori, professor

Eskeeva Mag'ripa Qaynarbay qizi
filologiya fanlari doktori, professor (Ostona,
Qozog'iston)

Yetakchi tashkilot:


Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 15 » yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (245 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 24 » 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil «24» 12 dagi 10 raqamli reestr bayonnomasi).




Q.K.Orazimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor


J.O.Tanirbergenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kоти, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent


A.K.Pirmiyazova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida toponimlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy ahamiyatli ma'lumotlarni o'zida saqlab kelayotgan lisoniy birlik sifatida o'rganilib kelmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari orasida ijtimoiy, madaniy va turistik aloqalarning tezlik bilan rivojlanishi, fanlarning integratsiyasi sharoitida tilni turli rivojlanish davrlariga oid belgi-xususiyatlarini aks ettiradigan toponimlar yordamida tadqiq qilishga e'tibor ortib bormoqda. Til va nutqda nominativ, kommunikativ hamda akkumulyativ vazifalarni bajaradigan toponimlarni bir butun tizim sifatida qiyosiy-tarixiy, etimologik, semantik-struktur va antroposentrik nuqtai nazardan tadqiq qilish katta ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida toponimika tez sur'atlar bilan rivojlanib, uning nazariy masalalari bo'yicha keng miqyosli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Toponimik materiallar ichida lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, ijtimoiy ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan turi – oykonimlarni fanning yangi paradigmatlari asosida tadqiq qilishning ko'lami kengaymoqda. Oykonimlarning etimologik, geografik, lingvistik, etnomadaniy xususiyatlarini xalqning tarixi, urf-odat va dasturlari, milliy qadriyatlarini, turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va moddiy-madaniy boyliklariga oid ma'lumotlar bilan bog'liq holda aniqlash, semantik-grammatik belgilarini ochib berish, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda toponimikaning oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin jamiyatning turli sohalarida yuz bergan o'zgarishlar qatori milliy-ma'naviy hayotda ham katta yangilanishlar yuz berdi. Ayniqsa, xalqning ming asrlik tarixi, madaniyati, milliylikini o'zida saqlab, avlodlar o'rtasida bog'lovchi vosita vazifasini bajarib kelayotgan tilni yangicha nuqtai nazardan tadqiq qilish, uning keng imkoniyatlarini bilishga bo'lgan qiziquvchanlik ortdi, uni o'rganishning zamonaviy usullari shakllandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning: «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»¹ degan fikri ona tilimizni chuqur va har tomonlama ilmiy asosda o'rganish zarurligini anglatib turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tilning eski, turg'un qatlamiga xos bo'lgan toponimlar, shu jumladan, oykonimlarning semantik-grammatik xususiyatlarini, etimologiyasini va etnomadaniy jihatlarini yangi ilmiy-nazariy konsepsiyalar asosida tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Boisi, oykonimlar ma'lum bir joyni boshqasidan ajratib ko'rsatishdan tashqari xalqning mental, milliy-madaniy, kognitiv, tarixiy, ijtimoiy ma'lumotlarini yetkazib berish vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi haqida», 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 21 oktyabrdagi PF 5850-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4561730>

sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi Qarori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi Prezidiumining 2019-yil 16-oktyabrdagi 584-son «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 3-noyabrdagi 135-son «Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Onomastika, uning bir tarmog‘i bo‘lgan toponimlarning tarixiy-etimologik, leksik-semantik, grammatik, stilistik, antroposentrik xususiyatlari tadqiqiga yo‘naltirilgan ilmiy ishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, RFA Lingvistik tadqiqotlar instituti, Boshqird davlat pedagogika universiteti, Qozon davlat universiteti (Rossiya), The University of Adelaide (Avstraliya); University of California, Boston University (AQSh); University of Bordeaux (Fransiya); Peking University (XXR); Oxford University Language Centre (Angliya); Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Nukus davlat pedagogika instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida onomastikaga bog‘liq tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: onomastikaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan (Oxford University Language Centre, Angliya; Sorbonne College de France, Fransiya); onomastik birliklarning kelib chiqishi, ma’nosi, tuzilishini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar olingan (University of Harvard, University of Colifornia, AQSh); toponimik tadqiqotlarning nazariy asoslari takomillashtirilgan (Belorus davlat universiteti, Belorussiya); toponimlarning til leksikasi, onomastik miqyosidagi o‘rni aniqlangan (Boku davlat universiteti, Ozarbayjon); toponimlarning antroposentrik xususiyatlari asoslangan (Pekin universiteti, XXR); toponimlarning kommunikativ, nominativ vazifalari

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chet el ilmiy tadqiqotlar sharhi www.internauka.ru; www.education.usa.info; www.philology.ru; www.rusnauka.com; www.uzh.ch/en.htm; www.zora.uzh.ch; www.bu.edu; www.uv.es; www.education.ua/universities; www.kaznu.kz; www.navoiy-uni.uz; <http://www.philology.nsc.ru>; <http://www.ivanovo.ac.ru>; <http://philology.nsc.ru> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

nazariy jihatdan asoslab berilgan (University of Geneva, Shveysariya, Moskva davlat universiteti, RF); geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashning asoslari ishlab chiqilgan (Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari toponimik komissiyalari, RF); toponimlarning struktur-semantik, nominativ-motivatsion, stilistik, lingvokognitiv, lingvokulturologik xususiyatlari asoslangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Nukus davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston).

Hozirgi kunda jahon tilshunosligida toponimlar, shu jumladan, oykonimlarni kompleks o‘rganish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: oykonimlar tuzilishi va semantikasidagi lingvistik hodisalarni aniqlash; semantik, struktur xususiyatlarni o‘rganish; oykonimlarning tarixiy-etimologik jihatlarini fanlar integratsiyasida, yangi yo‘nalishda tadqiq qilish; ularning paydo bo‘lishida inson omilini belgilash; lingvokulturologik, etnomadaniy jihatlarini ochib berish; oykonimlarni xalqning milliy madaniyatini ko‘rsatuvchi konseptlar sifatida o‘rganish; antroposentrik nuqtai nazardan oykonimlarda olam lisoniy manzarasining aks etishini aniqlash; toponim va oykonimlarning izohli, etimologik lug‘atlarini tuzish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligi, shuningdek, rus tilshunosligi, turkiy tilshunoslikda oykonimlar struktur-semantik, tarixiy-etimologik va etnomadaniy aspektda tahlil qilingan. Rus tilshunosligida toponimikaning shakllanishi, taraqqiyoti, nazariy asoslarining ishlab chiqilishida A.K.Matveev, A.P.Dulzon, V.A.Nikonov, N.V.Podolskaya, E.M.Pospelov, E.M.Murzaev, A.V.Superanskaya, V.D.Belenkaya, A.I.Popov kabi onomast olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi.³ Shuningdek, bu olimlarning tadqiqotlarida toponimlar (tarkibida oykonimlar)ni semantik, struktur va etimologik tahlil qilishning asoslari ishlab chiqilgan. Toponimlar, shu jumladan, oykonimlarni lingvokulturologik, lingvokognitiv va etnomadaniy yo‘nalishda tadqiq qilish yuzasidan muvaffaqiyatli ishlar bajarildi. Bulardan E.L.Berezovich, I.A.Dambuev, A.S.Galsova, L.N.Davletkulovalarning tadqiqotlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.⁴

Tilshunoslik, jumladan turkiy tillarda oykonimlar dastlab toponimlar tarkibida o‘rganilgan. Ozarbayjon tilshunosligida R.A.Kerimli, A.G.Gasanov, G.A.Geybullaev,⁵ tatar tilshunosligida G.F.Sattarov, R.I.Xaziev, O.R.Xisamov,⁶

³ Суперанская А.В. 1) Структура имени собственного (Фонология и морфология). – М.: Наука, 1969; 2) Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973; 3) Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985; Никонов В.А. Введение в топонимику. Изд. 2-е. – М.: Изд. ЛКИ, 2011.

⁴ Бerezovich Е.Л. Топонимия Русского Севера: Этнолингвистические исследования. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 1998; Дамбуев И.А. Ойконимия Циркумбайкальского региона: лингвокультурологический аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2004; Гальцова А.С. Лингвокультурологический потенциал Петербургской топонимии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2011; Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на примере географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области): Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2014.

⁵ Керimli Р.А. Некоторые замечания об азербайджанских ойконимах. // Материалы научной конференции, посвященной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – 82-83 с.; Гасанов А.Г. О некоторых искажениях в написании ойконимов Азербайджанкой АССР. // Материалы научной конференции, посвященной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – 104-106 с.; Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана (историко-этнографическое исследование). – Баку: Элм, 1986.

boshqird tilshunosligida A.Kamalov, F.Xisamitdinova,⁷ Turkmaniston toponimlari S.Ataniyazov,⁸ qozoq tilshunosligida oykonimlar E.Qoyshibaev, T.Januzaqov, A.Abdiraxmanov,⁹ lingvokulturologik yo‘nalishi E.Kerimbaev, A.Jartibaev, Q.Risbergenova,¹⁰ hudud oykonimlari N.Prmanova, Z.Qulamanova¹¹ tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida toponimlarning ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilishida T.Nafasov, Z.Do‘simov, N.Oxunov, S.Qoraev, T.Enazarov kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi,¹² regional toponimiya N.Begaliev, A.Otajanova, N.Uluqov, A.Ergashev, S.Ahmedov, O.Begimov, N.B.Adizovalarning ilmiy tadqiqotlarining asosiy mazmuni bo‘ldi.¹³ O‘zbekiston oykonimlari dastlab S.N.Nayimov tomonidan, keyin A.Turabov, Yu.Ne‘matovalarning ilmiy tadqiqotlari obyekt bo‘ldi.¹⁴

Qoraqalpog‘iston toponimlarini lingvistik nuqtai nazardan birinchi marta Q.Abdimuratov o‘rgangan. U 1966-yili «Қарақалпақстан топонимикасы»

⁶ Саттаров Г.Ф. Названия населенных пунктов Татарии, производные от древних тюрко-татарских личных имен. // Советская тюркология. – Баку: 1979, №2. 36-41 с.; Хазиев Р.И. Историко-лингвистический анализ ойконимии Юго-восточного Закамья Татарстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000; Хисамов О.Р. Историко-лингвистический анализ ойконимии западного Закамья Татарстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2001.

⁷ Камалов А.А. Башкирская топонимия (сравнительное и ареальное исследование): Дисс. в виде науч. докл. ... докт. филол. наук. – Уфа, 1997; Хисамитдинова Ф. Г. Башкирская ойконимия XVI – XIX вв. // Избранные труды. Ономастика. Том II (1), – Уфа: ИИЯЛ УНЦ РАН, 2016.

⁸ Атаниязов С. Түркменистаның географик атларының дүшүндиришли сөзлүги. – Ашхабад: Ылым, 1980.

⁹ Койчубаев Е. Основные типы топонимов Семиречья: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1967; Джанузаков Т. Основные проблемы ономастики казахского языка: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Алма-Ата, 1976; Әбдірахманов А. 1) Қазақстан этнотопонимикасы (Зерттелу тарихынан). – Алматы: Ғылым. 1979; 2) Топонимика және этимология. – Павлодар: Павлодар МУ, 2010.

¹⁰ Керимбаев Е.А. Этнокультурные основы номинации и функционирования казахских собственных имен: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Алма-Ата, 1992; Жартыбаев А.Е. Орталық Қазақстан топонимиясының тарихи-лингвистикалық, этимологиялық және этномәдени негіздері: Филол. ғылым. докт. ... дисс. автореф. – Алматы, 2006; Рысберген Қ.Қ. Қазақ топонимиясының лингвокогнитивтік және этномәдени негіздері: Филол. ғылым. докт. ... дисс. автореф. – Алматы, 2010.

¹¹ Прманова Н.А. Историко-лингвистический анализ тюркской ойконимии Кызылординской области Казахстана: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 1997; Құламанова З.А. Жамбыл облысы ойконимдері. Оқу құралы. – Тараз: Тараз университеті, 2009.

¹² Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968; Дусумов З. 1) Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; 2) Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989; Охунув Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989; Кораев С. Ойконимия Узбекистана (историко-географическое исследование формирования названий населенных пунктов Республики): Дисс. в виде науч. докл. ... докт. геогр. наук. – Ташкент, 1998; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимология тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.

¹³ Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Отажанова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2010; Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012; Аҳмедов С.Н. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2021; Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021.

¹⁴ Найимов С. Ойконимы Бухарской области: Дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Турабов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лингвистик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018.

mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning boshqa tadqiqotlari mahalliy toponimlarning ahamiyatli masalalari tadqiqiga bag'ishlangan.¹⁵ Qoraqalpog'iston toponimlarining ba'zi masalalari Q.Qochanovning tadqiqotlarida,¹⁶ toponimlar tarkibidagi geografik terminlarning atama yasash xususiyatlari M.Qurbanovning nomzodlik dissertatsiyasida o'rganilgan.¹⁷ Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari toponimlari D.Yuldashev, Qoraqalpog'iston gidronimlari G.Mambetova, Chimboy tumani toponimlari G.Abishov tomonidan, Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari oykonimlari I.Xalmuratov, Qoraqalpog'iston toponimlarining etimologiyasi, eski geografik nomlar Sh.Abdinazimov,¹⁸ Xo'jayli tumani toponimlari A.Esemuratov tomonidan maxsus tadqiq qilindi.¹⁹ Qoraqalpog'iston toponimlarining lug'ati tuzilib, nashr qilindi.²⁰ Ammo, Qoraqalpog'istonning barcha hududlaridagi oykonimlarini to'plash, ularni struktur-semantik, tarixiy-lingvistik va etimologik jihatdan tahlil qilish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Hozirgi qoraqalpoq tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston oykonimlarining kelib chiqish omillari, nomlanish sabablari, leksik-semantik va onomastik-grammatik, tarixiy etimologik, etnolingvistik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- tilshunoslikda oykonimlarni tarixiy-lingvistik aspektda tadqiq qilishning nazariy hamda amaliy ahamiyatini aniqlash;
- oykonimlarning turlarini aniqlash va ularning toponimiyaning boshqa turlari bilan munosabatlarini ko'rsatib berish;

¹⁵ Абдимуратов К. 1) Неге усылай аталған? – Нөкис: Қарақалпақстан, 1965; 2) Қарақалпақ топонимикасы хәм оны изертлеу мәселелери. // Әмиўдәръя. 1965, №2. 119-125 б.; 3) Почему так названо? – Нукус: 1970; 4) О необходимости составления словаря топонимов Каракалпакии. // Вестник ККФАН УзССР. – Нукус: 1971, №3. 80-84 с.; 5) «Қыпшақ», «Маңғыт» сөзлериниң этимологиясы ҳаққында. // Қарақалпақ тили бойынша изертлеулер. – Нөкис: 1971. – 159-168 б.; 6) (Т.Бегжанов билан бирга) Структура каракалпақских топонимов. // Советская тюркология. – Баку: 1971, №6. 85-88 с.

¹⁶ Кошанов К. Актуальные вопросы топонимизации на современном этапе. // Вопросы филологии. Сб. научных трудов. – Нукус: Билим, 1995. – 3-9 с.; Кошанов К., Зарымбетов А. Об исследовании топонимов, происшедших от гидронимов Каракалпастана. // Илим хәм жәмийет. – Нөкис: 2012, №3-4. 71-72 с.

¹⁷ Курбанов М. Қарақалпоқ тилидаги географик терминларнинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан.номз. ... дисс автореф. – Нукус, 2011.

¹⁸ Абдиназимов Ш.Н. 1) Памятник «Нехжул-Ферадис» и топоним Кердер». // Материалы международной научной конференции: Рукописи-первичный источник изучения национального наследия. – Ашхабад: Илим, 2013. – С. 391-393; 2) «Ġarīb ashīq» dāstanındaġı jēt-suw atamaları. // Муғаллим хәм ўзликсиз билимлендириў. –Нукус: 2017, №3. 13-16-б.; 3) Қарақалпоқ халқ достонларидаги жой номлариниң ясаилишида географик терминларнинг иштироки. // Lingvist. Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент: 2017. – 58-62-б.

¹⁹ Юлдашев Д. Жанубий Қарақалпоғистон топонимлариниң тарихий-этимологик тадқиқи: Филол. фан.номз. ... дисс. – Нукус, 2012; Мамбетова Г. Қарақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари: Филол.фан.б.фалс док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2018; Абишов Г. Чимбой тумани топонимлариниң тарихий-лингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2019; Холмуратов И.О. Жанубий Қарақалпоғистон ойконимлариниң лисоний тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Бухоро, 2020; Есемуратов А.Е. Хўжайли тумани топонимлариниң тарихий-лингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2022.

²⁰ Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2021.

- Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibidagi toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash;
- Qoraqalpog‘iston oykonimlarini semantik jihatdan tasniflash;
- oykonimlar semantikasidagi moddiy va ma’naviy madaniyatga xos belgilarni aniqlash, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarning oykonimlar tizimiga ta’sirini ko‘rsatib berish;
- Qoraqalpog‘iston oykonimlarining yasalishi va grammatik xususiyatlarini aniqlash;
- Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibidagi affikslarning funksional-semantik xususiyatlarini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida dissertant tomonidan olib borilgan tadqiqot va kuzatishlar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston toponimlari lug‘ati, katalog materiallar, respublikadagi barcha tumanlar, Nukus shahri bo‘yicha to‘plangan 1300 dan ortiq oykonimlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Qoraqalpog‘iston oykonimlarining tarixiy-lingvistik, nominativ, leksik-semantik, grammatik va yasalish, toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy, tavsiflash metodlari, statistik, struktur, etimologik, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oykonimlarning morfem tarkibi, yasalishi, grammatik qurilishiga ko‘ra sodda, affiksli, affikssiz, qo‘shma modellari; Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibidagi affikslar va ularning funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan;

toponimik indikatorlarning tarqalish areallari, atama yasash vazifasi, semantik xususiyatlari, imlosi, tarixiy oykonimlar, oykonimlar nominatsiyasida tabiiy-geografik omillar, bir toponimik obyekt atamasining ikkinchi bir obyektga berilishi toponimika nazariyasiga muvofiq aniqlangan;

Qoraqalpog‘iston oykonimlarining paydo bo‘lishida xalqning ijtimoiy turmush tarzi, milliy urf-odatlar, jamiyatda bo‘layotgan voqealarning toponimik tizimga ta’siri, bir qancha millat vakillari birga yashagan va yashayotgan joylarda oykonimlarning paydo bo‘lishining lingvistik xususiyatlari ochib berilgan;

Qoraqalpog‘iston oykonimlarining shakllanishida hududning fauna va florasini, tabiiy-geografik va relyef xususiyatlar, etnonimik, antroponimik, kasbga doir, ijtimoiy-g‘oyaviy atamalar asos bo‘lganligi aniqlangan va ularning semantik tiplari jihatidan tasnifi onomastik, lisoniy tamoyillarga muvofiq ishlab chiqilgan;

toponimlar va oykonimlarning nomlanishi bilan bog‘liq geografik, tarixiy, etnomadaniy motivlar ochib berilgan, joy nomlari semantikasida milliy-madaniy komponentlar, urf-odat va dasturlar, moddiy va ma’naviy madaniyatning aks etishi mavjud materiallar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston oykonimlarining tarixiy-lingvistik tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosa va natijalar, tahlilga tortilgan materiallar tilshunoslik, uning onomastika, toponimika sohalarini fan sifatida o‘qitishda, ularni yangi ilmiy-

nazariy fikrlar, atamalar, manbalar bilan to'ldirishda amaliy yordam berishi asoslangan;

qoraqalpog'iston tilining onomastik terminlari, Qoraqalpog'iston toponimlarining izohli, orfografik lug'atlarini yaratishda, mavjudlarini to'ldirishda, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlariga aloqador materiallarni o'rganishda ishonchli manba vazifasini bajarishi dalillangan;

oykonimlarning kelib chiqishida inson faoliyatining o'rnini belgilash, nomlarda etnik, mental, ijtimoiylik va milliylikning aks etishini o'rganish lingvokulturologiya uchun ahamiyatli ma'lumotlar bo'la olishi asoslangan;

tadqiqot materiallari kelajakda nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, geografiya, madaniyatshunoslik fanlari yo'nalishida olib boriladigan tadqiqotlarda yordamchi material vazifasini bajara olishi ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarni berishda ilmiy manbalarga tayanilganligi, nazariy fikrlarning rasmiy, ilmiy manbalardan olinganligi, to'plangan oykonimik materiallar tegishli manzillari bilan birga ko'rsatilganligi, ilmiy xulosa va natijalarning samarali usul va metodlar vositasida asoslanganligi, ularning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan xulosalarning vakolatli ilmiy tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda oykonimlarni tadqiq qilishning tamoyillari, yo'nalishlari, oykonimlarning lug'oviy-ma'noviy va struktur xususiyatlari, yasalishi, toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari atroflicha o'rganilgan bo'lib, tadqiqot ishi tilshunoslik nazariyasi, onomastika va toponimika asoslari, tarixiy leksikologiya hamda dialektologiya sohalari bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirishi va kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot xulosalari va materiallaridan toponimika bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, toponimlar hamda oykonimlarning izohli, etimologik lug'atlarini tuzishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya, tarix va geografiya bakalavr ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan onomastika, toponimika fanlaridan mustaqil ta'lim hamda seminarlarni tashkil qilishda, magistrlik dissertatsiyalarni yozishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston oykonimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy xulosalar asosida:

Oykonimlarning morfem tarkibi, yasalishi, grammatik qurilishiga ko'ra sodda, affiksli, affikssiz, qo'shma modellari, Qoraqalpog'iston oykonimlari tarkibidagi affikslarning funksional-semantik xususiyatlari haqidagi ilmiy xulosa va natijalardan O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2012-2016-yillari FA-A1-G003 – "Hozirgi qoraqalpog' tilida funksional so'z yasalishi" fundamental tadqiqotida foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 13-martdagi №103/1-son ma'lumotnomasi).

Natijada qoraqalpoq tili soʻz yasashining hozirgi holati va taraqqiyot boqichlarini aniqlash, soʻz va toponimlar (oykonimlar) munosabatini belgilash, onomastik hamda leksik birliklarning yasash masalalarini qiyosiy oʻrganish imkoni paydo boʻlgan, ular yangicha nuqtai nazarlar bilan boyigan;

Toponimik indikatorlarning tarqalish areallari, atama yasash vazifasi, Qoraqalpogʻiston oykonimlarining semantik xususiyatlari, imlosi, tarixiy oykonimlar, ularni qayta tiklash, toponim (oykonim)ning nominatsiyasida tabiiy-geografik va etnografik omillarning oʻrni, bir toponimik obyekt atamasining ikkinchi bir obyektga berilish sabablari boʻyicha berilgan ilmiy xulosalardan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tilni rivojlantirish departamentining chora-tadbirlar rejasi hamda yoʻl xaritalarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (QR Vazirlar Kengashi huzuridagi Tilni rivojlantirish departamentining 2023-yil 20-fevraldagi №11-09/5-02/161-son maʼlumotnomasi). Natijada respublika toponimlarining turli lugʻoviy va semantik tiplarga xos ekanligi aniqlangan, toʻgʻri yozilish meʼyorlari takomillashgan, koʻcha, ovul, aholi punktlari nomlarini oʻzgartirish, tarixiy toponimlarni qayta tiklash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni boyigan, topoobyektlarga nom berish tartiblari, hududning tabiiy-geografik xususiyatlarini saqlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning sifati ortgan;

Qoraqalpogʻiston oykonimlarining paydo boʻlishida xalqning hayot tarzi, milliy urf-odatlar, jamiyatda boʻlayotgan voqealarning taʼsiri, shuningdek, Qoraqalpogʻiston hududidagi oʻzbek, qozoq va turkman millati vakillari birga yashaydigan joylarda oykonimlarning paydo boʻlish xususiyatlari haqida bildirilgan fikr-tavsiyalari hamda ilmiy xulosalaridan Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi Qoraqalpogʻiston boʻlimi tomonidan ishlab chiqilgan “Yoʻl xaritasi”dagi “VI. “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun bajarilishini taʼminlash, davlat tilida ish yuritish” boʻlimida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi Qoraqalpogʻiston boʻlimining 2022-yil 30-dekabrda №01-13/272-son maʼlumotnomasi). Natijada tarixiy joylar va ularning nomlarini yoshlar orasida keng targʻib qilish, mazmun-mohiyatini tushuntirish, ona tiliga boʻlgan hurmatini oshirish, toponimik atamalarni toʻgʻri talaffuz qilish hamda yozish, madaniy meroslarni saqlash, tarixiy joylarning nomlarini qayta tiklashga tegishli maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning mazmuni yanada boyishiga erishilgan;

Qoraqalpogʻiston oykonimlarining semantik mazmuni, jumladan, hududning fauna va florasi, geografik xususiyatlari, etnonimik, antroponimik hamda kasbga doir oykonimlar haqida berilgan maʼlumotlar Qoraqalpogʻiston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining oʻlka tabiati, etnografiyasi va tarixiy shaxslarga oid koʻrgazmalarni tayyorlashda foydalanilgan. Shu bilan birga, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oykonimlarning etnomadaniy tomonlari koʻrgazma va anjumanlar oʻtkazishda foydalanilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2023-yil 17-yanvardagi №18-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻlka tabiati, xalq tarixi va madaniyatiga oid

tayyorlangan ko'rgazmalar mazmun jihatidan yanada boyigan, ko'rgazma uchun tayyorlangan eksponatlar qo'shimcha materiallar bilan takomillashtirilgan;

Yashash joylari nomlari – oykonimlarning nomlanishida etnomadaniy omillarning o'rni, joy nomlari tarkibidagi milliy-madaniy komponentlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatning aks etishi haqidagi ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston telekanalining «Til boyligi – el boyligi» teleko'rsatuvi hamda Qoraqalpog'iston radiosining «Tilga e'tibor – elga e'tibor» radio eshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-yanvardagi №05-22/16-son ma'lumotnomasi). Natijada bu ko'rsatuv va eshittirishlarning ilmiyligi ta'minlangan, ularning mazmuni, ma'naviy va amaliy ahamiyati ortgan, adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy dasturlarda tilga doir ma'lumotlar yangi manbalar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza sifatida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, shundan 11 maqola respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 204 sahifadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar aks etgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Oykonimlarni tadqiq qilish tamoyillari**" deb ataladi. Bobning «**Oykonimik tadqiqotlarda asosiy yo'nalishlar**» deb nomlangan birinchi faslida toponimikadagi nazariy masalalar, toponimik tizimga kiradigan birliklar, so'z va toponimning o'zaro munosabatlari, oykonimlarning semantik belgilari, shuningdek, oykonimikaning boshqa fanlar bilan aloqasi masalalari tahlil qilingan.

Топонимик tadqiqotlarda so‘z va toponimning o‘zaro aloqasi, vazifasi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida turli xil fikrlar bildirilgan.²¹ M.V.Gorbanevskiy har qanday toponimning asosi so‘z ekanligini, ularning til tizimiga kiradiganligini va til qonuniyatlariga muvofiq paydo bo‘lishi haqida yozgan edi.²² Bu fikrga qo‘shilish mumkin, shunday bo‘lsa ham toponimning o‘ziga xos farqli jihatlari ko‘rinadi. Masalan, so‘z obyektini umumiy ataydi, toponim esa uni yanada individuallashtiradi; so‘z semaga ega, qandaydir bir tushuncha bilan aloqador, toponimda so‘zning dastlabki ma‘nosi ikkinchi, obyektini atab ko‘rsatish vazifasi birinchi darajali bo‘ladi.

Geografik nomlar tarix fani uchun ham qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pgina eski atamalarda tarixiy ma‘lumotlar «yashiringan» bo‘ladi, ularni aniqlash esa murakkab va qiyin vazifa hisoblanadi. Turli davrlarda yuz bergan tarixiy voqealar oykonimlarda o‘z aksini topadi. Masalan, Qoraqalpog‘istondagi *Qumbasqan*, *Qumjiqqin*, *Qoyqirilganqala* atamallari har xil voqealarga bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

Топонимning ma‘lum bir geografik obyektning manzili vazifasini bajarishi uning geografiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi. Toponim – geografik kartaning asosiy elementi. Toponimikaga doir asarlarda²³ geografik nomlarning kalitini ko‘proq geografiyadan qidirish lozim ekanligi, geografiyani bilmasdan, toponimlarning kelib chiqishi haqida fikr bildirish noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin ekanligi ko‘rsatilgan. Ma‘lum bir geografik obyektning tabiiy xususiyatlariga aloqador paydo bo‘lgan toponimlar geografiyaning qonuniyatlari asosida o‘rganishni taqozo qiladi. Qoraqalpog‘iston hududida bunday geografik nomlar ko‘p. Masalan, *Qumawil*, *Shegeawil*, *Qutankól*, *Baqalikól*, *Porlitaw* v.b.

Birinchi bobning ikkinchi fasli «**Oykonimlarning turkiy tilshunoslikda o‘rganilishi**» deb nomlanadi. Bu faslda oykonimlarning hozirgi davrda turkiy tillarda o‘rganilish ahvoli, vazifalari tahlil qilingan.

Turkiy tilshunoslikda oykonimlarni o‘rganish o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlandi. Ozarbayjon oykonimlari dastlab R.A.Kerimli va A.G.Gasanovlar tomonidan,²⁴ keyinchalik G.A.Geybullaev tomonidan tadqiq qilindi.²⁵ Tatariston oykonimlari G.F.Sattarov, R.I.Xaziev va O.R.Xisamovning tadqiqotlarida ko‘rsatilgan.²⁶ Boshqirdiston oykonimlari A.Kamalovning, F.G.Xisamitdinovanning

²¹ Qarang: Суперанская А.В. Структура имени собственного (Фонология и морфология). – М.: Наука, 1969. – С.9; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – С. 37; 95; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2006. – Б.10; Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – Б.16.

²² Горбаневский М.В. Мир имен и названий. // http://gramota.ru/biblio/magazines/gramota/onomastics/28_19

²³ Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси (илмий-услубий қўлланма). – Қўқон: 2005. – Б.5-6.

²⁴ Керimli Р.А. Некоторые замечания об азербайджанских ойконимах. // Материалы научной конференции, посвященной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – 82-83 с; Гасанов А.К. О некоторых искажениях в написании ойконимов Азербайджанкой АССР. // Материалы научной конференции, посвященной изучению топонимии Азербайджана. – Баку: Элм, 1973. – 104-106 с.

²⁵ Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана (историко-этнографическое исследование). – Баку: Элм, 1986.

²⁶ Саттаров Г.Ф. Названия населенных пунктов Татарии, производные от древних тюрко-татарских личных имен. // Советская тюркология. – Баку: 1979, №2. 36-41 с.; Хазиев Р.И. Историко-лингвистический анализ ойконимии Юго-восточного Закамья Татарстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000;

asarlarida batafsil tahlil qilingan.²⁷ S.Ataniyazovning ilmiy ishlarida Turkmaniston toponimlarining (gidronim, oronim va oykonimlar) kelib chiqish manbalari aniqlangan.²⁸

A.Abdiraxmanovning tadqiqotida Qozog‘iston toponimlarining (shahar, qishloq, aholi punkti, tuman va temir yo‘l stansiyalari atamalarining) etimologiyasi tahlil qilingan.²⁹ G.Qonqashbaev, E.Qoyshibaev va T.J.Januzaqovlarning ilmiy ishlarida ham oykonimlar o‘rganilgan.³⁰ Qozoq tili toponimikasida geografik nomlar lingvokulturologik, lingvokognitiv, lingvosotsiologik, etnomadaniy aspektda o‘rganilgan.³¹ Qizilo‘rda va Jambul oblastlari oykonimlarining tarixiy-lingvistik va etnomadaniy tavsifi keng miqyosda tadqiq qilingan.³²

O‘zbek tilshunosligida H.Hasanovning «Ўрта Осиё жой номлари тарихи» (1965), «Ер тили» (1977), «Географик номлар сирини» (1985) asarlarida O‘zbekiston, shuningdek, O‘rta Osiyo toponimlari masalalari so‘z qilingan. O‘zbek tili toponimikasining taraqqiyotiga T.Nafasov, S.Nayimov, Z.Do‘simov, N.Oxunov, S.Qoraev, T.Enazarov, Yu.Ne‘matovalar katta hissa qo‘shdilar.³³

Qoraqalpog‘iston toponimlarini dastlab Q.Abdimuratov tadqiq qildi. Uning tadqiqotlarida *Amiwdaryya, Kegeyli, Qizilozek, Qaraozek, Kokozeq, Esimozek, Aqjaqs, Tarli, Rawshan, Suwenli, Qizketken, Nokis, Shimbay, Qo‘urat, Xojeli, Moynaq, Qazaqdaryya, Shaqalkopir, Janabazar, Taqiyatas, Qumawil, Shege awil* v.b. geografik nomlar bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.³⁴ Ular Qoraqalpog‘iston

Хисамов О.Р. Историко-лингвистический анализ ойконимии западного Закамья Татарстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2001.

²⁷ Камалов А.А. Башкирская топонимия (сравнительное и ареальное исследование): Дисс. в виде науч. докл. ... докт. филол. наук. – Уфа, 1997; Хисамитдинова Ф. Г. Башкирская ойконимия XVI – XIX вв. // Избранные труды. Ономастика. Том II (1), – Уфа: ИИЯЛ УНЦ РАН, 2016.

²⁸ Атаниязов С. Түркменистаның географик атларының дүшүндиришли сөзлүги. – Ашхабад: Ылым, 1980.

²⁹ Әбдірахманов А. 1) Қазақстан этнотопонимикасы (Зерттелу тарихынан). – Алматы: Ғылым. 1979; 2) Топонимика және этимология. – Павлодар: Павлодар МУ, 2010.

³⁰ Конкашпаев Г.К. Казахские народные географические термины: Автореф. дисс. ... канд. географ. наук. – Алма-Ата, 1949; Койчубаев Е. Основные типы топонимов Семиречья: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1967; Джанузаков Т. Основные проблемы ономастики казахского языка: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Алма-Ата, 1976.

³¹ Керимбаев Е.А. Этнокультурные основы номинации и функционирования казахских собственных имен: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Алма-Ата, 1992; Жартыбаев А.Е. Орталық Қазақстан топонимиясының тарихи-лингвистикалық, этимологиялық және этномәдени негіздері: Филол. ғылым. докт. ... дисс. автореф. – Алматы, 2006; Рысбергел Қ.Қ. Қазақ топонимиясының лингвокогнитивтік және этномәдени негіздері: Филол. ғылым. докт. ... дисс. автореф. – Алматы, 2010.

³² Прманова Н.А. Историко-лингвистический анализ тюркской ойконимии Кызылординской области Казахстана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1997; Құламанова З.А. Жамбыл облысы ойконимдері. Оқу құралы. – Тараз: Тараз университеті, 2009.

³³ Нафасов Т. 1) Қашқадарё область топонимлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1968; 2) Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: 1985; Найимов С. Ойконимы Бухарской области: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Дусумов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989; Охун Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989; Кораев С. Ойконимия Узбекистана (историко-географическое исследование формирования названий населенных пунктов Республики): Дисс. в виде науч. докл. ... докт. геогр. наук. – Ташкент, 1998; Эназаров Т. 1) Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи (2-китоб). – Тошкент: Университет, 2002; 2) Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лингвистик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018.

³⁴ Абдимуратов Қ. 1) Неге усылай аталған? – Нөкис: Қарақалпақстан, 1965; 2) Почему так названо? – Нукус: 1970; 3) Қарақалпақ топонимикасы ҳам оны изертлеу мәселелери. // Әмиўдәрйя. 1965, №2. 119-125 б.; 4)

oykonimlarini o‘rganishda qimmatli manba vazifasini bajaradi. Q.Qochanovning «Рус хэм қарақалпақ тиллериниң өз ара байланысы мәселелери» (Нөкис, «Билим», 1991) nomli asarida Qoraqalpog‘iston oykonimlari bo‘yicha ham ma’lumotlar berilgan. Qoraqalpog‘iston toponimlarining tuzilishi bo‘yicha turlari Q.Paxratdinov va Q.Bekniyazovlarning maqolasida ko‘rsatilgan.³⁵ M.Qurbanovning nomzodlik dissertatsiyasida oronimik, agroonimik va gidronimik terminlar bilan bir qatorda oykonimik terminlarning ham etimologiyasi, areali o‘rganilgan.³⁶ D.Yuldashevning dissertatsiyasida Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlari toponimlarining o‘ziga xos tomonlari o‘rganilgan.³⁷ G.Mambetovanning tadqiqotida Qoraqalpog‘istonning shimoliy tumanlari gidronimlarining semantik, struktur xususiyatlari tahlil qilingan.³⁸ G.Abishovning tadqiqotida Chimboy tumani toponimlarining semantik, struktur xususiyatlari tahlil qilingan.³⁹ Sh.Abdinazimovning ilmiy ishlarida Qoraqalpog‘iston toponimlarining etimologiyasi, kelib chiqishi, eski geografik nomlar haqida ma’lumotlar berilgan.⁴⁰ I.Xolmuratovning dissertatsiyasida Amudaryo, Beruniy, Ellikqal’a va To‘rtko‘l tumanlari oykonimlarining o‘ziga xos tomonlari o‘rganilgan.⁴¹ A.Esemuratov o‘zining Xo‘jayli tumani toponimlarining tarixiy-lingvistik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotida tuman toponimlarining, shu jumladan, oykonimlarining semantik va grammatik xususiyatlarini aniqlagan.⁴²

Birinchi bobning uchinchi fasli «**Qoraqalpog‘iston oykonimiyasi bo‘yicha manbalar**» deb ataladi. Qoraqalpog‘iston hududidagi ko‘pgina tarixiy shahar va qo‘rg‘onlar, aholi punktlari, suv obyektlari haqidagi arxeologik ma’lumotlarni S.P.Tolstov, Ya.G‘ulomov va boshqa olimlarning asarlaridan uchratish mumkin. S.P.Tolstovning tadqiqotlarida *Jambasqala, Shilpiq, Bestóbe, Gáwirqala, Kat, Gúldirsin, Adaqqala*, Taxtako‘pir tumani hududidagi *Baraqtam, Bilewliqorğan*,

«Қыпшақ», «Маңғыт» сөзлериниң этимологиясы ҳаққында. // Қарақалпақ тили бойынша изертлеўлер. – Нөкис: 1971. – 159-168 б.; 5) (Т.Бегжанов билан бирга) Структура карақалпақских топонимов. // Советская тюркология. – Баку: 1971, №6. 85-88 с

³⁵ Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақстан топонимлериниң қурылысы. // Илим хэм жәмийет. – Нөкис: 2010, №1-2. – 69-70 б.

³⁶ Қурбанов М.Д. Қарақалпақ тилидағи географик терминларнинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Нукус, 2011.

³⁷ Юлдашев Д. Жанубий Қарақалпағистон топонимлариниң тарихий-этимологик тадқиқи: Филол. фан.номз. ... дисс. – Нукус, 2012

³⁸ Мамбетова Г. Қарақалпағистоннинг шимолий туманлари гидронимлари: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2018.

³⁹ Абишов Г. Чимбой тумани топонимлариниң тарихий-лингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2019.

⁴⁰ Абдиназимов Ш.Н. 1) Памятник «Нехжул-Ферадис» и топоним Кердер». // Материалы международной научной конференции: Рукописи-первичный источник изучения национального наследия. – Ашхабад: Илим, 2013. – С. 391-393; 2) «Gárib ashıq» dástanındaǵı jer-suw atamaları. // Муғаллим хэм ўзликсиз билимлендириў. –Нукус: 2017, №3. 13-16-б.; 3) Қарақалпақ халқ достонларидағи жой номлариниң ясалишида географик терминларнинг иштироки. // Lingvist. Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент: 2017. – 58-62-б.

⁴¹ Холмуратов И.О. Жанубий Қарақалпағистон ойконимлариниң лисоний тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Бухоро, 2020.

⁴² Есемуратов А.Е. Хўжайли тумани топонимлариниң тарихий-лингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2022.

Хо‘jayли тумани hududidagi *Jomart qassap*, *Shamunabiy*, *Topiraqqala* kabi tarixiy joylar haqida ma’lumotlar uchraydi.⁴³

Ya.G‘ulomovning «Хоразмнинг суғорилиш тарихи» (Тошкент, 1957) deb nomlangan fundamental asarida Qoraqalpog‘iston hududidagi ko‘pgina suv obyektlari, eski shahar va qishloqlarning nomlari, ularning paydo bo‘lishi bilan aloqador ma’lumotlar berilgan. Masalan, Amudaryoning *Oks*, *Jayhun* degan qadimiy nomlari, uning *Okuzketken*, *Kókózek*, *Kurder*, *Kegeyli*, *Quwanishjarma* deb nomlangan tarmoqlarining atalish sabablari ko‘rsatilgan.

T.A.Jdanko va S.Kamalovlarning tadqiqotlarida XVIII–XIX asrlardagi arxiv hujjatlari asosida *Qo‘nirat*, *Shimbay*, *Xojeli*, *Ma‘ngit*, *Aqqala*, *Aydosqala*, *Ernazarqala* v.b. shaharlarning paydo bo‘lish davrlari haqida ma’lumotlar berilgan.⁴⁴ Etnograf X.Esbergenov *Qo‘nirat* atamasi, *Ayran*, *Ashamayli*, *Boyrashli* qishloqlari, *Adaq*, *Qorgansha* deb nomlangan eski shaharlar, qo‘rg‘onlarning nomlanish sabablarini tahlil qilgan.⁴⁵ M.Mambetullaev va O.Yusupovlarning maqolasida *Nókis*, *Tórtkúl*, *Qiyat*, *Shimbay*, *Xojeli*, *Qo‘nirat*, *Ma‘ngit* shaharlari, *Maylishe‘ngel*, *Jan‘gaziqala*, *Erejepqala*, *Qudaybergenqala*, *Iyshanqala*, *Ja‘naqala*, *Qilishqala*, *Ernazarqala*, *Serenqala*, *Mexterqala*, *Aqqala*, *Aydosqala*, *Orinbayqala*, *Qosminar* qo‘rg‘onlarining tarixi haqida boy ma’lumotlar berilgan.⁴⁶

Arxeolog G‘.Xojaniyazov o‘zining «Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари» nomli monografiyasida Ellikqal’a tumanidagi *Dumanqala*, *Qirqqizqala*, Sho‘manoy tumanidagi *Aybúyirqala*, Qo‘ng‘irot tumanidagi *Aqshú‘ngil*, *Dáwkeskenqala*, Beruniy tumanidagi *Qizilqala*, *Pilqala*, To‘rtko‘l tumanidagi *Anqaqala*, *Gúldirsin*, *Shilpiq* haqida rivoyat va afsonalar keltirgan.⁴⁷ Bundan boshqa bir qator tadqiqotlarda To‘rtko‘l, Chimboy, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Nukus shaharlarining tarixi, ularga aloqador ilmiy fikrlar, rivoyatlar haqida bebaho ma’lumotlarni uchratish mumkin.⁴⁸

Ko‘pgina tillarda toponimlar geografik faktorlar sababli paydo bo‘ladi. Q.Seytniyazov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida Kegayli, Bo‘zatov, Chimboy, Qora‘zak va Taxtako‘pir tumanlaridagi joy nomlarini geografiyadagi metodlar asosida tahlil qilgan.⁴⁹ Geografiya fanlari doktori S.Qoraev o‘zining «Ўзбекистон

⁴³ Толстов С.П. 1) Древний Хорезм. – М.: Изд-е МГУ, 1948. – С. 29; 60; 70; 74; 115; 2) Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 29; 108; 200; 368.

⁴⁴ Этнография Каракалпаков. XIX–начало XX века (материалы и исследования). – Ташкент: Фан, 1980; Камалов С. Каракалпаки в XVIII–XIX веках. – Ташкент: Фан, 1968.

⁴⁵ Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый ҳам мәдений естеликлери. – Нөкис: Билим, 1993.–Б. 11-15; 25-28; 40-45.

⁴⁶ Мамбетуллаев М.М., Юсупов О.Ж. Города и поселения Каракалпаков в XVII –XIX вв. (Материалы к своду памятников материальной и духовной культуры каракалпаков). // Вестник ККО АН РУз. 2005, №1-2. 95-106 с.

⁴⁷ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: О‘zbekiston, 2007. – Б. 13-56.

⁴⁸ Хожаягелдиев А. История города Турткуля (1873–1941 г.): Автореф. дисс.... канд. истор. наук. – Нукус, 1996; Кудияров А. История города Чимбая (XIX–начало XX вв.): Автореф.дисс. ... канд. истор. наук. – Нукус, 1999; Сайманов С. История города Кунграда (XVIII–первая половина XIX века): Автореф.дисс. ... канд. истор. наук. 2001; Есназарова З. История города Нукуса периода независимости (1925–2005). – Нукус: 2009; Tur‘ganov B.Q. Qaraqalpaqstan tariyxinan derekler (oqiw qollanba). – Tashkent: Tafakkur bo‘stoni, 2019. – B. 115-118.

⁴⁹ Сейтниязов К.М. Топонимы северных районов правобережья Каракалпакии: Дисс. ... канд. геогр. наук. – Ташкент, 1998.

вилоятлари топонимлари» (Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2005, 189-201-бетлар) degan kitobining «Қорақалпоғистон топонимлари» bo‘limida bir qator oykonimlarga izoh berib, ularning atalish sabablariga ta’rif bergan. O. Boltaboev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida oykonimlarni ijtimoiy-geografik aspektda tahlil qilgan. To‘plangan 1151 oykonimning tarqalish geografiyasi, kartografik sxemasi, geografik va ijtimoiy faktorlar ta’sirida paydo bo‘lgan toponimlar ko‘rsatib berilgan.⁵⁰

Dialektologik tadqiqotlarda toponimlarning kelib chiqishi, lisoniy xususiyatlari mahalliy xalq tili va tarixi bilan bog‘liq o‘rganiladi. O. Dospanovning «Қарақалпақ тили қубла диалектиниң лексикасы» (Нөкис, «Қарақалпақстан», 1977, 59–72-бетлар) nomli asarida To‘rtko‘l, Amudaryo, Beruniy va Ellikqal’a tumanlarida uchraydigan *Tórtkúl, Shabbaz, Ayazqala, Biybazar, Amirabad, Gúldirsín, Kelteminar, Nayman, Qumsingár, Dosbay awılı, Saribiy awılı, Shoraxan, Shimam* toponimlarining atalish sabablari izohlangan. A. Ishaev *Agadil, Ayran, Ayuvchi, Aqnoğay, Bağanalı, Baysun, Esábiy, Ishkili, Kánágás, Keráyit, Nayman, Oyrat, Sağır, Sayat, Tama* v.b. etnotoponimlari xususida qiziqarli ma’lumotlar bergan.⁵¹ T. Begjanov Mo‘ynoq tumani hududida uchraydigan *Qazaqdárya, Qarabaylı, Tallıq, Qarajar, Moynaq, Aqdárya, Úshsay* va boshqa toponimlarining etimologiyasi, paydo bo‘lish davrlarini aniqlagan, ishga 80 ga yaqin toponimni kiritgan.⁵² O. Bekbaulov o‘zining asarlarida *Aral, Nawqas* va *Nókis* atamalarini etimologik jihatdan tahlil qilgan.⁵³

Sho‘manoy tumani hududida uchraydigan ba’zi toponimlar haqida ma’lumotlar G. Bekmuratovaning «Qaraqalpaq tilinin’ Shomanay so‘ylesimi» nomli monografiyasida uchraydi. U mazkur asarida *Shomanay, Ketenler, Jampıqqala, Jańaqala, Qasqajol, Monshaqli, Qıziltaw, Gúmiskól, Qıyatjarğan, Ólidárya, Jańaqala* atamalarining paydo bo‘lish davrlarini aniqlagan.⁵⁴

S. Shinnazarovanning tadqiqotlarida Qonliko‘l tumanidagi *Altinkól, Arzumbetqum, Qanlıkól, Qarabaylı, Qızıljar, Qızılqala, Tabankól* toponimlarining kelib chiqish sabablari, tuzilishi va ma’noviy xususiyatlari tahlil qilingan.⁵⁵ I. Quttimuratova Qo‘ng‘irot tumani hududidagi *Payğambar qızı, Qoyansor, Qundızkól, Saransha awıl, Jiyde toğay, Jiydekól, Sabankól, Juwsansay, Jawıngırdıń kóli, Qazaqdárya, Qaraxojanıń bağı* toponimlarining atalish sabablarini aniqlagan.⁵⁶

⁵⁰ Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг ижтимоий-географик таҳлили: Геогр.фан.б.фалс.док. ... дисс.авторев. – Самарқанд, 2022.

⁵¹ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 10-12; 17-21.

⁵² Бегжанов Т. Қарақалпақ тили диалектологиясының мәселелеринен. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971. – Б.58-69.

⁵³ Бекбаўлов О. 1) «Арал» гидроними ҳәм «араллылар» этноними ҳаққында. // Қарақалпақ тили бойынша изертлеўлер. Илимий мақалалар топламы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1971. – 169-178 б.; 2) Арал бойы топоним ҳәм этнотопонимлери ҳаққында. // Вопросы каракалпацкого языкознания. Сборник научной статьи. – Нукус: Каракалпақстан, 1983. – 194-208 с.

⁵⁴ Bekmuratova G. Qaraqalpaq tilinin’ Shomanay so‘ylesimi. – No‘kis: Bilim, 2004. – B. 24-27.

⁵⁵ Шынназарова С. Қанлыкөл сөйлесиминде топонимикалық атамаларға байланыслы өзгешеликлер. // Илим ҳәм жәмийет. – Нөкис: 2010, № 3-4. 67-69 б.

⁵⁶ Қуттымұратова Ы.А., Мамбетқаримов Ғ. Қоңырат ауданындағы топонимикалық атауларға шолу. // Norwegian Journal of development of the International Science. 2021, №74. 47-48 б.

Ayrim leksikografik asarlarda Qoraqalpog‘iston toponimlarining tarixiy manbalari, etimologiyasi va lug‘aviy qatlamlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Mashhur rus onomasti V.A.Nikonov o‘zining «Краткий топонимический словарь» deb nomlangan asarida *Barsakelmes, Beruniy, Qo‘nirat, Nókis, Tórtkúl* va *Shimbay* toponimlariga izohlar bergan.⁵⁷ Z.Do‘simov va X.Egamovlarning «Жой номларининг қисқача изоҳли луғати» (Нукус, «Билим», 1991) kitobida *Ámiwdárya, Baday to‘g‘ay, Beruniy, Baraqtam qor‘g‘ani, Diywanbegi awılı, Depeliqaq awılı, Dorman awılı, Yawmit‘jap awılı, Jumirtaw, Qat awılı, Ma‘ngit, Nókis, Aral, Taqiyatas, Qaraqalpaqstan, Qurbanaq* toponimlarining kelib chiqishi haqida ma‘lumotlar berilgan. T.Enazarov o‘z asarida *Ma‘ngit, Tórtkúl, Qizketken, Qazanketken, Qo‘nirat* oykonimlarining kelib chiqishi, atalish sabablariga aloqador qimmatli fikrlar bildirgan.⁵⁸

«Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги»da har xil geografik obyektlar nomlarining izohlari, ularning nomlanish sabablari berilgan.⁵⁹ 2022-yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentining tashabbusi bilan «O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati» nomli qo‘llanma nashrdan chiqdi.⁶⁰ Unga Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 150 ga yaqin toponim kiritilgan.

«Русша-қарақалпақша сөзлик» va «Қарақалпақша-русша сөзлик»ning oxirida qo‘shimcha sifatida Qoraqalpog‘iston toponimlarining ro‘yxati berilgan.⁶¹ 1980 va 1990-yillari rus-kirill alifbosida, 2020-yili qoraqalpoq lotin alifbosida nashr qilingan qoraqalpoq tilining imlo lug‘atlarining oxirida Qoraqalpog‘iston toponimlarining qisqacha ro‘yxati berilgan.⁶²

Bizning tadqiqot olib borishimizda publitsistik asarlar ham katta yordam berdi. Publitsistik asarlarda Qoraqalpog‘istondagi shahar va tumanlarning tarixi, ularning paydo bo‘lish davrlari haqida manbalar, rivoyat va afsonalar ko‘p uchraydi.⁶³

K.Qunnazarovning publitsistik asarlarida Qoraqalpog‘istonning *Nukus, Chimboy, Beruniy (Qiyot), To‘rtko‘l (Petro-Aleksandrovsk), Xo‘jayli, Qo‘ng‘iroq, Mo‘ynoq, Taxiatosh* kabi shahar va tumanlari tarixi, ularning rivojlanishiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.⁶⁴

⁵⁷ Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. – М.: Мысль, 1966. – С.44; 55; 220; 300; 430; 470.

⁵⁸ Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. Тошкент: ЎзМУ босмахонаси, 2004. – Б.39-97.

⁵⁹ Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2021.

⁶⁰ O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.

⁶¹ Русско-каракалпакский словарь. – М.: 1947. – С. 829-831; Каракалпакско-русский словарь. – М.: 1958. – С. 764-771.

⁶² Қарақалпақ тилиниң орфографиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 398-403; Қарақалпақ тилиниң орфографиялық сөзлиги. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 350-354; Qaraqalpaq tiliniñ orfografiyalıq sózligi. – Nókis: Bilim, 2020. – В. 512-517.

⁶³ Сайманов С. Жаңа әсирге – жаңа кәдемлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2000. – Б. 16-30; Ҳайитбой Абдусодиқ Аслим, АСЛим Хўжа эли. – Нукус: Қарақалпақстан, 2005; Беласаров Д. Хожели. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2011. – Б. 112-113.

⁶⁴ Қунназаров К. 1) Нөкис қаласының қурылыў тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2003. – Б. 6-7; 2) Бес қала. Теңиздиң этирапы елим. – Нөкис: Билим, 2010. – Б.17-53; 3) Қарақалпақстанның қала хәм районлары. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2016.

J.Moyanov o'zining «Кегейли тарийх жылнамасында» deb nomlangan publitsistik asarida Kegayli va Bo'zatov tumanlarining tarixi, bu tumanlardagi bir qator toponimlarning paydo bo'lish sabablari haqida ham ma'lumotlar bergan.⁶⁵

A.Abdiev va A.Reymov «Тахтакөпир тарийпи» deb atalgan asarida ushbu tumanga doir ko'pgina tarixiy, geografik, etnomadaniy, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni keltirgan. Masalan, tuman hududidagi *Baraqtam, Qorqansha, Aydosqala, Serenqala, Meterqala* qo'rg'onlari tarixi, *Qaratereñ, Bórshitaw, Júyrikbas, Quwanishjarma, Jañasuw, Taxtakópir, Balkeózek, Ibrayimózek, Atamurat* toponimlarining nomlanish sabablari, *Dáwqara* atamasiga aloqador xalq orasida saqlanib kelayotgan afsonalar, informatorlar bergan manbalar va rivoyatlar berilgan.⁶⁶

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Qoraqalpog'iston oykonimiyasida qo'llaniladigan toponimik indikatorlar**» deb ataladi.

Toponimik indikatorlarning asosiy vazifasi joy nomlari tarkibida kelib, toponimning qaysi tipdagi geografik obyektga tegishli ekanligini ko'rsatishdan iborat. Toponimik indikatorlar mahalliy geografik terminlarning o'ziga xos bir qismi, ular ma'lum bir hududning toponimik tizimini shakllantirishda faol qatnashadigan leksik birliklardir. Har bir tilga oid toponimik indikatorlar hududning o'ziga xos tabiatini ko'rsatadi.

Turkiy tillardagi toponimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari, tarixiy-etimologik manbalari, toponimlarning tarkibida qo'llanilishi masalalari har tomonlama o'rganildi.⁶⁷ Qoraqalpog'iston oykonimiyasida uchraydigan indikatorlarni qaysi geografik obyektни bildirishiga ko'ra bir necha guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.

Ikkinchi bobning «**Oykonimik indikatorlar**» deb nomlangan birinchi faslida Qoraqalpog'iston oykonimlari tarkibidagi *awil, elat, jurt, posyolka, kóshe, qala, qorqan, rayon* kabi oykonimik indikatorlar tahlil qilingan.

Qoraqalpog'istondagi ko'pgina oykonimlar *awil* indikatorini yordamida yasalgan: *Áwez awılı, Bayawil, Allayar Dosnazarov awılı, Bessari awılı, Qıpshaq awılı, Ádebiyat awılı, Xorezm awılı, Jamansha awılı, Kelteminar awılı* v.b.

–*abad* toponimik formanti Qoraqalpog'iston oykonimlari tarkibida ishtirok etib, aholi punkti, ovul nomlarini yasaydi: *Elabad, Gúlabad, Diyqanabad, Jañaabad, Qırqızabad, Ámirabad, Miynetabad, Nurabad, Paxtaabad, Xalqabad* v.b.

⁶⁵ Moyanov Ж. Кегейли тарийх жылнамасында. – Нөкис: Билим, 2009. – Б. 7-129.

⁶⁶ Эбдиев А., Реймов А. Тахтакөпир тарийпи: (тарийхий-эдебий хэм өмирбаянлык топлам). – Ташкент: «TURON-IQBOL», 2019. – Б. 25-51.

⁶⁷ Конкашпаев Г.К. Казахские народные географические термины. // Известия АН КазССР. Серия география, вып. 3, Алма-Ата. 1951. – №99; Юзбашев Р.М. Опыт исследования азербайджанских географических терминов: Автореф. дисс. ... канд. геогр. наук. – Баку, 1962; Гельдиханов М. Местные географические термины Туркменистана. – Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку: 1973; Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номзод. ... автореф. – Тошкент, 2009; Қурбанов М.Д. Қорақалпоқ тилидаги географик терминларнинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Нукус, 2011.

Qoraqalpog‘istonda 400 dan ortiq geografik obyektlar nomlarining tarkibida *elati* indikatori qo‘llaniladi: *Qazaqdarya elati, Qizketken elati, Taslaq elati, Jiydelibaysin elati, Qopaqkól elati, Qiyatabad elati, Sari altin elati* v.b.

Jurt indikatori toponimlar tarkibida kelganda, «ovul, aholi punkti», «joy» ma‘nosini ifodalaydi: *Atajurt, Eshimniñ jurti, Kóseniñ jurti, Gúlqizdiñ jurti, Ğaniydiñ jurti, Esbergenniñ jurti, Mádiyarjurt, Sapparbayjurt* v.b.

E.V.Sevortyaning fikricha, eski turkiy tilda *yur-u* «yurish» so‘ziga ot yasovchi *-t* affiksining qo‘shilishidan *yurt* («ko‘chmoq, ko‘chib kelmoq») so‘zi paydo bo‘lgan.⁶⁸

Qala indikatori turkiy tillar, jumladan, qoraqalpoq tilida dastlab «qo‘rg‘on» ma‘nosini bildirgan. Qadimda Qoraqalpog‘iston hududida qo‘rg‘on-qal‘alar ko‘p bo‘lgan. Ular *qala* so‘zi bilan aytilgan: *Aydosqala, Ayazqala, Búrkitqala, Dumanqala, Dashqala, Elliqqala, Qabatqala, Oyqala, Gáwirqala, Jañaqala, Jilanliqala, Húrliqala, Iyshanqala, Ayaqqala, Tasqala, Jambasqala* v.b.

E.M.Murzaevning aniqlashicha, *qala* indikatori Avstraliya va Antarktidadan boshqa barcha materiklardagi oykonimlar tarkibida uchraydi.⁶⁹

Rayon so‘zi respublika, viloyat yoki katta shahar ichidagi administrativ-hududiy joyni, hududni bildiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarkibida 16 tumanning atamasi mazkur indikator yordamida ishlatiladi: *Moynaq rayoni, Xojeli rayoni, Kegeyli rayoni, Taxtakópir rayoni* v.b.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Gidronimik indikatorlar**” deb atalib, unda *arna, ariq, ataw, basıw, bóget, dárya, jaǵıs, jargan, jarma, jap, jar, jıqqın, julǵa, kanal, kól, kópir, qazǵan, qaq, qashi, qudiq, quyi, oy, ózek, saǵa, say, salma, suw, tarnaw, tuba, shúńgil* indikatorlari tahlil qilindi. Qoraqalpog‘iston oykonimlarining 260 dan ortig‘i yuqoridagi indikatorlar ishtirokida yasalgan.

Arna indikatori Qoraqalpog‘iston hududida keng tarqalgan, u «katta suv yo‘li, kanal» ma‘nosini anglatadi. *Arna* so‘zining etimologiyasi haqida V.V.Bartold, A.P.Dulzon,⁷⁰ Z.Do‘simovlar⁷¹ fikr bildirgan. Qoraqalpog‘iston oykonimiyasida *arna* indikatorli joy nomlari ko‘p emas. Masalan, *Arnaboyı awılı, Tentekarna awılı, Qazaqarna awılı, Paxtaarna awılı*. Bu qishloqlar *arna* bo‘ylariga yaqin joylashgani uchun shunday nomlangan.

Ariq so‘zi yerlarni sug‘orish uchun *arna*, *yop* va suv omborlaridan ajralib chiqqan kichik suv yo‘li, qo‘lda qazilgan solmani bildiradi. Bu indikator Qoraqalpog‘iston gidronimlari va oykonimlarini yasashda mahsuldor emas. U faqat uchta oykonim tarkibida uchraydi: *Qamisariq, Shoqariq, Jañaariq*.

Qoraqalpog‘istonda o‘nga yaqin aholi punktlari nomlari *ataw* indikatori yordamida yasalgan: *Ataw awılı, Bozataw, Bozataw posyolkasi, Bozataw awılı, Qulataw awılı, Erjanataw awılı* v.b.

⁶⁸ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1989. – С. 255.

⁶⁹ Мурзаев Э.М. География в названиях. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Наука, 1982. – С. 62.

⁷⁰ Дульзон А.П. Древние топонимы Южной Сибири индоевропейского происхождения. // Топонимика Востока. Новые исследования. – М.: Наука, 1964. – С. 344.

⁷¹ Дўсимов З. *Arna* сўзи ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969, №6. – Б. 56.

Qoraqalpoq tilida *basıw* soʻzi daryoning ikki yonidagi suv olish, suvning toshishiga aloqador qoʻllanilsa,⁷² gidronimik indikator sifatida «suv bosgan yer», «suvga qongan boʻz yer» degan maʼnoni bildiradi: Amudaryo tumanidagi *Gónebasıw* va *Tazabasıw* ovullari joylashgan oʻrin ilgari daryo suvi toshgan bosuv yerlar boʻlgan. *Basıw* gidronimik indikator Qoraqalpogʻiston toponimlari tarkibida koʻp uchramaydi.

Bóget – suv yoʻlini toʻsish, suvni toʻxtatish, oqimini kamaytirish uchun loydan, toshdan yoki qumdan qoʻyiladigan toʻsiq. Masalan, *Tilewbaybóget*, *Atamuratbóget* v.b. *Bóget* indikator gidronimlarning ham, shuningdek, boshqa toponimlar tarkibida ham uchraydi: *Múytenbóget*, *Tasbóget*, *Shuwaqbaybóget*, *Xanbóget*, *Bógetli*, *Larbóget* kabi.

Qoraqalpogʻistonda *dárya* indikator ishtirokida yasalgan gidronimlar koʻp emas: *Ámiwdárya*, *Jaʼnadárya*, *Kókdárya*, *Ólidárya* v.b. Ilgari Amudaryoning bir necha tarmoqlari boʻlgan. Koʻpgina daryolar suvi qurib, yoʻq boʻlib ketgan, ayrimlari kichik arna, yop hajmiga kelib qolgan. Ularning nomlari oykonimlar sifatida saqlanib qolgan: *Ámiwdárya rayoni*, *Erkindárya elati*, *Jaʼnadárya awılı*, *Kókdárya awılı*, *Aqdárya*, *Qipshaqdárya*, *Qazaqdárya elati*, *Dáryalıq*, *Dáryaboyi* kabi.

Mahalliy xalqning soʻzlashuv tilida kanal, daryoning cheti, shuningdek, kemalar toʻxtaydigan oʻrin ham *jaǵıs* deb ataladi. Kegayli va Nukus tumanlaridagi *Qállijaǵıs*, Xoʻjayli tumanidagi *Ámiwdárya jaǵısı* deb nomlangan ovullar arna va daryoning qirgʻogʻiga (chetiga) yaqin joylashgani uchun shunday nomlangan. *Jaǵıs* soʻzi Qoraqalpogʻiston toponimlarini yasashda kammahsul hisoblanadi.

Qoraqalpogʻistonning bir qator joylarida *Qıyatjarǵan*, *Mıńjarǵan*, *Suwjarǵan* deb nomlangan ovullar bor. Joy nomlari tarkibida *jarǵan* indikator bilan birga, shunday maʼnoda *qazǵan* va *jarma* indikatorlari ham isteʼmolda boʻladi. Masalan, Taxtakoʻpir tumanidagi *Shopanqazǵan* oykonimi tarkibidagi *qazǵan* soʻzi *jarǵan* soʻziga sinonim. Mazkur soʻz toponim yasashda juda siyrak qoʻllaniladi.

Jarma soʻzi Kegayli tumanidagi *Ernazarjarma*, *Quwanishjarma* gidronimlari tarkibida ishtirok etib, u «kanal» maʼnosini anglatadi. *Jarma* soʻzi «yormoq», «qazimoq» maʼnolarini ifodalaydi.

Jap Qoraqalpogʻiston gidronimlarining yasalishida eng mahsuldor qoʻllaniladigan indikatorlardan biri boʻlib, u suv obyektlari nomlari tarkibida uchraydi. Mazkur indikator oykonimlar tarkibida ham koʻp uchraydi: *Bozjap awılı*, *Jalpaqjap awılı*, *Seytekjap elati*, *Abatjap awılı*, *Álimjap awılı*, *Mayjap awılı*, *Sazanjap awılı*, *Tazajap awılı*, *Tallijap awılı*, *Qosjap awılı*, *Shalijap awılı*, *Xanjap awılı* v.b.

Ayrim tadqiqotchilar *jap* soʻzi eroniy tillarda «suv» maʼnosini ifodalovchi *ab* (*ob*) soʻzi bilan aloqador, deb taʼkidlaydilar.⁷³ Maʼlumki, eroniy tillarda *ob* soʻzi «suv», «daryo» maʼnosini bildiradi. Qadimgi turkiy tili lugʻatida ham *ob* soʻzi asli eroniy tillarga mansubligi va u «suv» maʼnosini bildirishi koʻrsatib oʻtilgan.⁷⁴

⁷² Каракалпак тилинің түсиндирме сөзлиги. II том. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023. – Б. 9.

⁷³ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысль, 1984. – С. 645.

⁷⁴ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 362.

Shunday ekan, *jap* indikatori eroniy tillarda «suv» ma'nosini ifodalovchi *ab (ob)* so'ziga *j* tovushining orttirilishi, ya'ni *ob* so'zining o'zgargan shakli, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, *ob* so'zi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston oykonimlari tarkibida hozirgacha saqlangan. Masalan, Xo'jayli tumanidagi *Kolab ovuli* nomi «ko'l, yob» ma'nosini anglatadi.

Jar so'zi «ikki tomoni tik tushgan chuqurlik» degan ma'noni anglatadi: *Aqjar*. Jarlar, ko'pincha, daryo, kanallarning qirg'oqlarida suvning kuchli oqimi yoki o'zi yo'nalish olib oqib o'tgan yerlarda paydo bo'ladi. Shuningdek, daryo, kanalning qirg'og'i, jar tashlab oqib turgan yeri, tepaliklar bilan baland qumliklarning tik tushgan tomoni ham *jar* deyiladi. Masalan, *Qosjar, Qiziljar, Qarajar*.

Daryo, kanal yoki yop suvining qirg'oqqa toshib oqishi *jiqqin* deb aytiladi. Chimboy tumanidagi *Qoshqarjiqqin* va Xo'jayli tumanidagi *Qumjiqqin* oykonimlarining paydo bo'lish sabablari, ilgari bu joylardagi arna, o'zakning suvi to'lib, qirg'oqdagi qum to'siqni yiqitib oqqan.

Jilga gidronimik indikatori faqat Qorao'zak tumanidagi *Qazaqjilga* oykonimi tarkibida uchraydi.

Kanal – daryoning suvini bir joydan ikkinchi bir joyga yoki ekin maydonlariga yetkazib berish maqsadida sun'iy ravishda qazilgan katta suv yo'li. *Kanal* gidronimik indikatori faqat *Qiyisqkanal awili* oykonimi tarkibidagina uchraydi.

Qoraqalpog'iston hududida *kol* gidronimik indikatori ishtirokida yasalgan 72 oykonim uchraydi: *Aytinkol awili, Qopaqkol awili, Altinkol elati, Qanlikol rayoni, Tabankol elati, Uzinkol awili, Mashankol awili, Atakol awili, Maqpalkol awili, Arpakol awili, Qattikol awili, Shomaqkol awili, Naymankol elati, Samankol awili* v.b.

Kol indikatori Qoraqalpog'iston hududidagi barcha ko'l nomlari tarkibida uchraydi. Avvallari Amudaryoning suvi toshib, san-sanoqsiz kichik ko'llarni paydo qilgan. Keyinchalik bir qancha ko'llar suvi qurib, tekisliklarga yoki aholi yashash joylariga aylangan, ayrim ko'llar hozirgacha saqlanib qolgan. Shuning uchun ham, *kol* gidronimik indikatori oykonimlar Qoraqalpog'istonda ko'p uchraydi.

Qoraqalpog'iston oykonimiyasida *kopir* so'zi bilan aloqador kelib chiqqan o'n bir atama uchraydi: *Beskopir elati, Kuyikkopir awili, Qarlibaykopir awili, Shayxanakopir awili, Seksenbirkopir elati, Taxtakopir rayoni, Taxtakopir awili, Qoskopir awili, Shaqalkopir awili, Aqkopir awili, Xojakopir awili*.

Qaq indikatori gidronimlar Qorao'zak, Qo'ng'iroq, Mo'ynoq, Taxtako'pir tumanlarida, shuningdek, Nukus shahrining janub tomonida uchraydi: *Janasholaqqaq, Kóktóbeqaq, Kósikqaq, Tayketkenqaq*.⁷⁵ *Qaq* so'zi gidronimik indikatori sifatida yomg'ir va sel suvlarini tabiiy yoki maxsus to'playdigan kichik chuqurlikka bog'liq ishlatiladi. Ellikqal'a tumanidagi *Shuqirqaq awili*, To'rtko'l tumanidagi *Depeliqaq awili* oykonimlari *qaq* indikatori yordamida paydo bo'lgan.

⁷⁵ Мамбетова Г. Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари: Филол.фан.б.фалс док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2018. – Б. 15.

Qashu soʻzi ayrim ovul nomlari tarkibida gidronimik indikator sifatida «toʻsiq», «boʻgat» degan maʼnosini saqlagan. Buni *Qashu*, *Aqqashu* oykonimlari misolida koʻrish mumkin. Qoraqalpogʻiston toponimiyasida *qashu* soʻzi bilan yasalgan geografik nomlar koʻp emas.

Qudiq va *quyi* indikatorlari ishtirokida yasalgan oykonimlar Qoraqalpogʻiston oykonimiyasida kam: *Aqqudiq awili*, *Besquyi elati*, *Besquudiq awili*.

Oy indikatorini «suv toʻplanib qolgan chuqurlik» maʼnosini bildiradi. *Oy* soʻzi oronimik indikator sifatida ham ishlatiladi. Masalan, Kegayli tumanida *Begdullaoy*, Shoʻmanoy tumani hududida *Nádiroy* oronimlari tarkibida *oy* soʻzi yer betining tekislikdan yoki atrofdagi yerdan past, oʻy yer degan maʼnoni bildiradi. Qoraqalpogʻistonda oʻn ikki ovulning nomi mana shu *oy* indikatorini ishtirokida kelib chiqqan. Misollar: *Dáwletoy awili*, *Qaraoy awili*, *Qorazoy awili*, *Mamitoy awili*, *Mimiroy awili*, *Kendirlioy awili*, *Qumoy awili*, *Tájenoy awili*, *Pillánoy awili*, *Tubaoy awili*.

Qoraqalpogʻistonda *ózek* indikatorli oʻn uch oykonimni koʻrsatish mumkin: *Balkeózek awili*, *Porxanózek awili*, *Kókózek awili*, *Qirqózek awili*, *Mayliózek awili*, *Qizilózek awili*, *Qaraózek rayoni*, *Qaraózek awili*, *Esimózek awili*, *Tikózek awili*, *Tomarliózek awili*, *Úshózek awili*, *Kindikózek awili*.

Ózek soʻzi qadimgi turkiy tilda «suv», «daryo» maʼnosini anglatgan *uz*, *uzak*, *uzuk* soʻzlari bilan aloqador boʻlishi mumkin. Ayrim turkiy tillarda *suv* va *oʻzak* soʻzlarining «daryo» maʼnosi saqlangan.

Qoraqalpogʻistonda *sağa* indikatorini ishtirok etgan *Bessağa*, *Jumabaysağa*, *Úshjapsağa*, *Kanalsağa*, *Ráwshansaga* oykonimlari ham mavjud boʻlib, ular kanal, arnalarning boshlangan yerida joylashgani uchun shunday nomlangan.

Say soʻzi «oʻzak» degan maʼnoni bildiradi. Taxtakoʻpir tumanidagi *Dawitsay*, Beruniy tumanidagi *Altinsay*, Xoʻjayli tumanidagi *Tereńsay*, Moʻynoq tumanidagi *Úshsay* ovullari oʻsha joylarda mavjud boʻlgan eski soylarning nomlari bilan bogʻliq atalgan.

Salma gidronimik indikatorini ovul nomlari tarkibida kam qoʻllaniladi. Bu soʻz Amudaryo tumanidagi *Bozsalma* oykonimi tarkibidagina uchraydi.

Qoraqalpogʻiston toponimiyasida *suw* komponentli gidronimlar ham, oykonimlar ham koʻp emas: *Kóksuw awili* va *Bozsuw awili*.

Tuba soʻzi gidronimik indikator sifatida oykonimlar tarkibida uchraydi. Masalan, Xoʻjayli tumanidagi *Tuba* koʻlining boʻyida joylashgan kichkina ovulni *Tuba awil* deb, Taxiatosh tumanidagi *Naymantuba awili* ham shu yerdagi koʻlga aloqador, Kegayli tumanida *Aqtuba* koʻliga yaqin ovul *Aqtuba* deb nomlanadi.

Shúngil gidronimik indikatorini ishtirokida *Aqshúngil awili*, *Sarishúngil awili*, *Kóbeyshúngil awili* va *Mayshúngil awili* oykonimlari paydo boʻlgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli «**Oronimik indikatorlar**» deb ataladi. Toʻplangan oykonimik materiallar ichida 70 ga yaqin atamaning tarkibida oronimik indikatorlar ishtirok etgan. Masalan, *qum* indikatorini 30 ga yaqin atamaning, *taw* indikatorini 14 atamaning, *tas* indikatorini 7 atamaning, *tóbe* indikatorini 5 atamaning tarkibida uchraydi.

Qum indikatorini ovul nomlarini yasashda faol qatnashadi. Misollar: *Aqqum awılı, Arzımbetqum awılı, Belqum awılı, Juwanqum awılı, Jalǵızqum awılı, Qumshıńgil elati, Qızılqum awılı, Qumbasqan awılı.*

E.M.Murzaevning fikricha, *qum* indikatorli toponimlar Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Kavkaz, Xitoyning g‘arb qismi, Eron va Afg‘oniston hududlarida uchraydi.⁷⁶

Taw indikatorini ishtirokida paydo bo‘lgan oronimlar Qoraqalpog‘istonda ko‘p emas: *Qarataw, Beltaw, Bórshitaw* v.b. Qoraqalpog‘istonda *taw* indikatorini ishtirokida hosil bo‘lgan ovullar bor: *Aqtaw awılı, Beltaw elati, Qirantaw awılı, Tóktaw awılı, Jumirtaw elati, Qarataw elati, Páshenttaw awılı, Porlitaw elati* v.b.

Tas indikatorini yordamida *Shoytas awılı, Tasshoqqı awılı, Tashqala awılı, Tash awıl, Taqıyatas* kabi ovul va shahar nomlari yasalgan.

Qoraqalpog‘iston hududida *tóbe* indikatorini ishtirokida paydo bo‘lgan toponimlar ko‘p emas: *Aqtóbe, Shaytantóbe, Bestóbe elati, Kempirtóbe awılı, Qaratóbe awılı* v.b.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli «**Agroonimik indikatorlar**» deb ataladi. Qoraqalpog‘iston toponimiyasida 50 ga yaqin oykonim tarkibida *boz, baǵ, dala, jer, kebir, qayır, taqır, toǵay, shor* agroonimik indikatorlari uchraydi.

Boz so‘zi ayrim agroonimlar tarkibida kelib, «ishlov berilmay yotgan yer» degan ma‘noni anglatadi: *Bozjer* v.b. *Boz* so‘zi gidronimlar va oykonimlar tarkibida ham qatnashadi: *Bozkól, Bozjap, Bozjap kanalı* v.b. Qoraqalpog‘istonning ko‘pgina joylarida *boz* indikatorini ishtirokida yasalgan oykonimlar uchraydi. Masalan, *Bozawıl Bozataw* va h.k.

Qoraqalpog‘istonda yigirmaga yaqin oykonim *baǵ* so‘zi ishtirokida yasalgan: *Baǵawıl, Jańabaǵ awılı, Júzimbaǵ elati, Tazabaǵ awılı, Ullibaǵ awılı* v.b.

Jer indikatorini oykonimlar tarkibida kelganda, «joy, makon» degan ma‘noni anglatadi: *Jańajer awılı, Nurımjer awılı, Tazajer awılı* v.b. *Jer* agroonimik indikatorini «birovga tegishli yoki birovning tasarrufidagi yer, dala» degan ma‘noni ham anglatadi: *Laqqınıń jeri, Ótemurat túyekeshtıń jeri* va h.k.

Kebir indikatoridan *Narmankebir, Esexankebir, Arshankebir, Kebiralań* oykonimlari yasalgan.

Qoraqalpog‘istonning ba‘zi hududlarida *taqır* indikatorini ishtirok etgan nomlarni uchratish mumkin: *Aytaqır, Uzıntaqır, Qaraniń taqırı, Jaymataqır awılı* va h.k.

Dissertatsiyaning «**Qoraqalpog‘iston oykonimlarining semantik xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobi sakkiz fasldan iborat.

Semantik tasnif – toponimlar va oykonimlarni tahlil qilishning asosiy tamoyillardan biridir. Tasniflash ishi bilan deyarli barcha nomshunos olimlar shug‘illanib keladilar. Masalan, F.Xisamitdinova, O.R.Xisamov, Z.Qulamanova Z.Do‘simov, S.Nayimov, Yu.Ne‘matovalar⁷⁷ oykonimlarning nominativ-motivatsion xususiyatlarini aniqlagan, leksik-semantik tasnifini ishlab chiqqan.

⁷⁶ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысль, 1984. – С. 314.

⁷⁷ Хисамитдинова Ф.Г. Формирование ойконимической системы башкирского языка: Научный доклад ... докт. филол. наук. – М., 1992. – С.25-36; Хисамов О.Р. Татарстанның Көнбатыш Кама аръягы ойконимиясе. – Казан: ТӨҺСИ, 2017. – Б.87-139; Құламанова З.А. Жамбыл облысы ойконимдері. Оқу құралы. – Тараз:

Uchinchi bobning birinchi fasli «**Kishi nomlaridan yasalgan oykonimlar**» deb ataladi. Qoraqalpog‘iston oykonimlari misolida olib qaraydigan bo‘lsak, kishi nomlarining oykonimga aylanishi har xil usullar vositasida yuzaga kelgan:

1) Ismlardan paydo bo‘lgan oykonimlar: *Amanbay awili, Seytek awili, Otarbay awili, Ótegen awili, Qasim awili, Óten awili* va h. k.

2) Ism va laqabidan paydo bo‘lgan oykonimlar: *Áliy shep awili, Kóseniń jurti awili, Reyim bajbanniń awili, Serjan gawqildaqtıń awili, Qulamet jiraw awili* va h. k.

3) Ism va familiyadan paydo bo‘lgan oykonimlar: *Ayapbergen Muwsaev elati, Ibrayim Yusupov awili, Tolibay Qabulov awili* v.b.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli «**Etnonimlardan yasalgan oykonimlar**» deb ataladi. Qoraqalpog‘iston etnooykonimlarini quyidagi guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Qoraqalpoq urug‘lari nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar. Qoraqalpoq xalqining urug‘-qavmlik tuzilishi *qońurat* va *on to‘rt urug‘* bo‘lib ikki arisga bo‘linadi. Qo‘ng‘irot arisiga *ashamayli, qiyat, qoldawli, qostamgali, balgali, qándecli, qazayaqli, qaramoyin, múyten, teristamgali, baymaqli, tiyekli, uygır, baqanli-sháwjeyli* urug‘lari kiradi. Atalgan urug‘lar yana bir necha kichik urug‘larga ajraladi. O‘n to‘rt urug‘ arisiga katta to‘rt urug‘ – *qıtay, qıpshaq, keneges, mańgıt* kiradi. Bu urug‘lar ham bir necha mayda urug‘larga bo‘linadi. Ko‘rsatilgan ikki aris ilgari vaqtda o‘zlarining yashash hududiga ega bo‘lgan. Ushbu hududlar hozirgi davrda ham birmuncha saqlangan.⁷⁸

Qoraqalpog‘iston hududida yuqorida ko‘rsatilgan qoraqalpoq urug‘lari va ularning mayda urug‘lari atamalaridan paydo bo‘lgan oykonimlar ko‘plab uchraydi: *Ayteke awili, Anna awili, Aralbay awili, Qırq awili, Írgaqli awili, Qańli awili, Keneges awili, Aranshi awili, Aqmańgıt elati, Mamiqshi awili, Shúyit awili, Arsari awili, Qılqali awili, Qiyatjargan awili, Togızaq awili, Qándecli awili, Baymaqli awili, Qazayaqli awili, Uygır awili, Sháwjeyli awili, Shómishli awili* v.b.

2. Qozoq urug‘lari nomlaridan yasalgan oykonimlar. Tarixdan ma‘lumki, Qoraqalpog‘iston hududiga qozoqlarning ko‘chib kelib joylashishi, qoraqalpoqlar bilan aralash yashashi qadim davrlardan boshlangan.⁷⁹ Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha,⁸⁰ qozoqlar bilan qoraqalpoqlar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi bo‘ylarida yashagan. Qozoqlar Qoraqalpog‘iston hududiga XVIII asrning boshlarida Xiva xonligi chegaralarini – bugungi yashayotgan joylarini makon qilgan. Qozoqlarning Qoraqalpog‘iston yerlariga ko‘chib kelish harakatlari bundan keyin ham bo‘lib turgan. B.Beketovning ta‘kidlashicha, XIX asrning 20–40-yillari qozoqlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ya‘ni chorvachilik va dehqonchilik bilan

Тараз университети, 2009. – Б.82-96; Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1978, №1. 17-20 б.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: Дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С.70; Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лингвистик тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б.51-76.

⁷⁸ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. – М.: Наука, 1950. – С. 37-62.

⁷⁹ Камалов С. Каракалпаки в XVIII–XIX веках. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 165-166.

⁸⁰ Тилеўмуратов М. Каракалпақлардың туўысқан халықлар менен мәдений байланыслары. – Нөкис: Каракалпақстан, 1989. – Б. 110.

shug‘ullanish maqsadida bu hududlarga kelib joylashib olishgan.⁸¹ Qozoqlar Qoraqalpog‘istonning deyarli barcha hududlarida yashaydi. Ularning ko‘pchiligi qozoqlarning Kichik juzga kiradigan urug‘lari, jumladan, alimdan – *qarasaqal, tórtqara, shekti, kete, shómekey*, boyulidan – *aday*, yetti urug‘dan – *tabin, tama, kereyt*. Bulardan boshqa, o‘zlarini qozoq deb hisoblaydigan *xoja* bilan *tóreler* ham bor. Amudaryo, Bo‘zatov, Kegayli, Qonliko‘l, Qorao‘zak, Nukus, Taxtako‘pir, Xo‘jayli va Chimboy tumanlarida *Qazaq awili*, Mo‘ynoq tumanidagi *Qazaqdárya elati*, shuningdek, qozoq urug‘lari nomlaridan paydo bo‘lgan *Aday awili, Ajim awili, Álim awili, Bayli awili, Tuatay awili, Bathi awili, Jaqayim awili, Tama awili, Qarash awili, Shegem awili, Qarasaqal awili, Shómekey awili, Tabin awili* v.b. oykonimlarni uchratish mumkin.

3. O‘zbek urug‘lari nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar. K.L.Zadixinaning ko‘rsatishicha, Amudaryoning quyi oqimi bo‘ylaridagi o‘zbeklar urug‘-aymoq bo‘lib yashashga odatlangan, shu bois bu hududlarda o‘zbek urug‘lari nomlari bilan atalgan *Qo‘nirat, Qipshaq, Ma‘ngit, Qitay, Nayman* oykonimlari paydo bo‘lgan.⁸² Olimning yuqoridagi ma‘lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, o‘zbeklar hududiy joylashishi bo‘yicha Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli tumanlarida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham, bu hududlarda o‘zbek etnonimlari bilan aloqador kelib chiqqan geografik nomlarni ko‘plab uchratish mumkin: *Ózbek awili, Durman awili, Qa‘nli awili, Qaraqipshaq awili, Qo‘nirat awil, Qipshaq elati, Ma‘ngit qalasi, Qurbanaq awili, Qitay awili, Ógiz awili, Sa‘gir awili, Sayat awili* v.b.

4. Turkman urug‘lari nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar. Turkmanlar O‘zbekistonning Xorazm, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida elat bo‘lib yashaydilar. Qoraqalpog‘iston hududida ham turkmanlar qadimdan mahalliy xalq bilan birga qo‘shni bo‘lib, ba‘zi joylarda alohida ovul bo‘lib yashab kelmoqda. Turkmanlarning ko‘pchilik qismi To‘rtko‘l, Sho‘manoy, Beruniy, Qo‘ng‘irot, Ellikqal’a, Amudaryo, Xo‘jayli va Taxiatoch tumanlarida yashaydi. To‘rtko‘l tumanida turkmanlarning *ata* urug‘i, Beruniy tumanida *salir*, shuningdek *shawdir, góklen* va *ersari* urug‘lari yashaydi.⁸³ To‘rtko‘l tumanida *Ataoba, Atayurt* ovullari, Taxiatoch tumanida *Shawdir aylanba awili*, Amudaryo, Ellikqal’a, Qonliko‘l, Qorao‘zak, Taxiatoch, To‘rtko‘l, Sho‘manoy, Xo‘jayli va Nukus tumanlarida *Túrkmén awili, Túrkménkól awili, Xo‘jayli* tumanida *Yawmutjap* toponimlari uchraydi.

5. Boshqa millat nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar. Qoraqalpog‘iston hududida qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, turkmanlar bilan birga qirg‘iz, tojik, rus va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Taxtako‘pir tumanidagi *Qirg‘iz* ovuli qirg‘izlarning elat bo‘lib joylashganidan darak beradi. *Qirg‘iz* ovulida eng dastlab kam sonli qirg‘izlar yashagan.⁸⁴

⁸¹ Бекетов Б. Қарақалпақ қазақтарының тілі. – Алматы: Рауан, 1992. – Б. 8-9.

⁸² Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-дарьи. // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I. – М.: 1952. – С. 329.

⁸³ Курбанова З.И. Некоторые данные о переселении туркмен в Турткульский и Берунийский районы Каракалпакстана в XX веке. // ЭЗР ИА ҚҚБ хабаршысы. – Нөкис, 2004, №3-4. – С. 80.

⁸⁴ Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2021. – Б. 47; Серикбаева А. Тахтакопир районы топонимлериниң пайда болыў себеpleri хаккында. // Ilim hám jámiyet. – Nókis, 2021, №4. – Б. 92.

Uchinchi bobning uchinchi fasli «**O‘simlik nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar**» deb ataladi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Qoraqalpog‘iston florasida hozirgi kunda 1100 dan ortiq yovvoyi va madaniy o‘simliklar ro‘yxatga olingan, shulardan 655 turi gulli, 364 turi dorivor, 400 dan ortig‘i daraxt o‘simliklar hisoblanadi.⁸⁵ O‘simlik nomlarining toponimlashuv hodisasini turli omillar bilan tushuntirish mumkin. Ma‘lum bir joyda o‘simlik turining ko‘p yoki kamligi kishilar e‘tiborini tortishi fitonim asosli oykonimlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston toponimiyasida *Júzimbağ, Shoqtorañgil, Kegeyli* oykonimlari shu yo‘l bilan paydo bo‘lgan.

Qoraqalpog‘iston toponimiyasidagi fitooykonimlarni quyidagicha guruhlariga bo‘lish mumkin:

1) daraxt nomlaridan kelib chiqqan oykonimlar: *Aqterek awılı, Gújim awılı, Gújimlı awılı, Júzimzar elatı, Júzimbağ elatı, Shoqtorañgil awılı, Qarağay awılı, Qaratal awılı, Tallıjap awılı, Sayalıgújim awılı* v.b.

2) yovvoyi o‘simlik nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar: *Aqbaslı awılı, Aqqamis awılı, Boyanlı awılı, Qamisariq elatı, Qamısshalı awılı, Pishenkól awılı* va sh.k.

3) donli, poliz ekinlari nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar: *Arpakól awılı, Geshir awılı, Kendirli awılı, Kendirlioy awılı, Mákke awılı, Shalıjap awılı* v.b.

Uchinchi bobning to‘rtinchi fasli «**Hayvonot nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar**» deb ataladi. So‘ngi yillari turli omillar ta‘sirida Qoraqalpog‘iston tabiatidagi ko‘pgina hayvon, qush turlari yashash joylarini o‘zgartirdi, soni kamayib ketdi, aksari hozirgi kunda yo‘q bo‘lib ketgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Qoraqalpog‘iston toponimiyasida hayvonot olami bilan bog‘liq toponimlarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish hududning tabiati, hayvonot olamini o‘rganishda alohida ahamiyatga egadir. Bu guruhga *Ğazoy, Ğargátúbek, Ğargásay, Qarabaylı, Sazanjap, Súwenarım, Súwenli* oykonimlarini kiritish mumkin.

Uchinchi bobning beshinchi fasli «**Obyektning geomorfologik xususiyatlari bilan aloqador oykonimlar**» deb nomlanib, mazkur fasl quyidagicha turlarga ajratib o‘rganildi:

1. Obyektning tur-tusi, rangi bilan bog‘liq oykonimlar. Qoraqalpog‘iston oykonimlari tarkibida *qara, aq, sari, kók, qızıl* so‘zlari uchraydi. Qoraqalpog‘iston oykonimlari nominatsiyasida *aq* so‘zi ko‘p qo‘llanilmaydi: *Aqjap, Aqqum, Aqkól, Aqqudıq, Aqtuba, Aqshúñgil. Kók* leksemasi *Kókdárya, Kóksuw, Kókiyrim* toponimlarining, *sari* so‘zi *Sariataw, Sarişhúñgil, Sarıkól* oykonimlari tarkibida, *qızıl* so‘zi faqat Mo‘ynoq va Chimboy tumanlarida *Qızıljar* atamasidagina uchraydi.

2. Obyektning soni, miqdori bilan bog‘liq paydo bo‘lgan oykonimlar. Qoraqalpog‘iston oykonimiyasida, asosan, *úsh, bes, altı, jeti, toğız, on, jigirma, qırq* sanoq sonlari uchraydi: *Úshağash awılı, Beskópir awılı, Jetitóle awılı, Ushtam awılı, Bestam awılı, Altitam awılı, Jetitam awılı, Toğıztam awılı, Ontam awılı, Besjay awılı, Jigirmajay awılı, Qırqjay awılı, Qostam awılı, Qoskópir awılı* va sh.k.

⁸⁵ Serekeeva G.A., Wo‘tenov T., Kaipov Q. Qoraqalpaqstan florası’ndag‘i’ siyrek ushi’rasatug‘i’n wo’simlikler. – Tashkent: 2014. – B. 3; https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpog‘iston//Tuprog‘i,o‘simlik_va_hayvonot_olami

Qoraqalpog‘istonda XX asrning boshlarida hududiy chegaralash, kartalashtirish ishlarida bir necha geografik obyektlar tartib sonlar bilan atalgan: *Birinshi awil, Ekinshi awil, Ushinshi awil, Segizinshi awil, Tog‘izinshi awil* v.b.

3. Obyektning tabiiy belgilari asosida paydo bo‘lgan oykonimlar: *Tazaqonus awili, Janajer awili, Góneqala, Góne awil, Oydağı awil, Ayaq awil, Arqa awil, Qostruba awili, Shertek awil, Ferma awil, Bozawil, Kebir awil, Qumawil* v.b.

Uchinchi bobning oltinchi fasli «**Transoykonimlar**» deb nomlanib, unda bir obyekt atamasining ikkinchi obyektga o‘tish hodisasi tahlil qilingan. Toponimik tizimda bir toponimning bir necha geografik obyektga o‘tish hodisasi ko‘p uchraydi.

1. Gidronimlarning oykonimlarga o‘tishi: *Abatjap awili, Seytekjap awili, Begjap awili, Bozjap awili, Arpakól awili, Aqumbetshúngil awili, Qopaqkól awili, Moyinkól awili, Aqkól awili, Aqshakól elati, Altinkól elati* va sh.k.

2. Oronimlarning oykonimlarga o‘tishi: *Aqqum, Arzumbetqum, Belqum, Jilliqum, Qizilqum, Ustirt, Aybúyir, Qarataw, Qirantaw, Porlitaw elati, Tóktaw* v.b.

Uchinchi bobning yettinchi fasli «**Kasb nomlaridan paydo bo‘lgan oykonimlar**» deb ataladi. Qoraqalpog‘istonning mahalliy aholisi qadimgi zamonlardan boshlab shu makonda yashab, har xil kasb, hunar bilan shug‘ullanib kelgan.⁸⁶ Masalan, *Arbashi awili, Arqanshi awili, Boyrashi awili, Kónshi awili, Usta awili, Úyshi awili* v.b.

Amudaryo, Bo‘zatov, Qorao‘zak, Sho‘manoy va Chimboy tumanlaridagi xo‘jaliklar chorvachilikka ixtisoslashtirilgani uchun *Sharwa awili, Sharwadar awili, Shopan, Shopanlar eli, Túyekesh awili* oykonimlari paydo bo‘lgan. Chimboy tumanidagi *Arqanshi* ovuli aholisi ipdan arqon tayyorlash bilan hozirgi vaqtgacha shug‘ullanadi. Xo‘jayli va Chimboy tumanlaridagi *Kónshi* ovuli aholisi yovvoyi hayvonlar yoki qoramolning terisini iylab, uni qayta ishlab, bozorga olib borib sotgan. Kegayli, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l va Nukus tumanlarida baliqchilar bo‘lganligini *Baliqshu awili*, Qo‘ng‘irot va Xo‘jayli tumanlarida qamishdan bo‘yra, ipdan bo‘z to‘qiydigan, bo‘yoq tayyorlaydigan hunarmandlar bo‘lganligini *Boyrashi awili* nomlaridan bilish mumkin.

Ilgarilari qoraqalpoqlar orasida *shirashi* («chiroqchi») degan kasb bo‘lgan. Chiroqchilar tunda darg‘alar bilan birga kemandagi old tomonida chiroq yoqib, yo‘l ko‘rsatib o‘tirgan.⁸⁷ Bu kasb egalari daryo, arna bo‘ylariga yaqin joylashgan ovullarda yashagan. Xo‘jayli tumanining hozirgi Vodnik posyolkasidagi *Shirashi* ovulida ilgari yigirmatacha uyda chiroqchilar yashagan. Ular Amudaryoda tunda kelayotgan qayiq va kemalarga chiroq-fonus yoqib, qirg‘oqni ko‘rsatib, mayoq vazifasini bajargan.

